

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17441939>

INNOVATION BANK XIZMATLARINING AHAMIYATI VA ULARNING BANK FAOLIYATIGA TA’SIRI

Maxamatova Nargiza Shuxrat qizi

Bank Moliya akademiyasi

Magistratura tinglovchisi

grand01012001@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi o'n yillikda global moliya sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, innovatsion texnologiyalar va raqamli transformatsiya, tijorat banklari faoliyatining har bir jabhasida kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy bank xizmatlariga bo'lgan talab kundan-kunga o'sib borayotganligi, raqobatning sharoitini tubdan o'zgartirib, yangi imkoniyatlar va istiqbollarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada, tijorat banklarida mavjud zamonaviy bank xizmatlari, fintech texnologiyalari, innovatsion xizmatlar va bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari keng yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Tijorat banki, raqamli texnologiyalar, bank xizmatlari, bank samaradorligi, fintech, raqamli banking.

KIRISH.

Dunyo moliyaviy muhiti texnologik yangilanishlar va o'sib borayotgan iste'molchi talablarining ta'siri ostida tez sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Bank sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, xizmat ko'rsatishning yangi modellari hamda samarali marketing strategiyalarini yaratish orqali raqobatbardoshlikni saqlab qolish va bozor ehtiyojlariga moslashish juda muhim. Ushbu maqolada, nazariy, ilmiy asoslar hamda amaliy misollar orqali, innovatsion va texnologik yondashuvlarning tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishdagi roli, ularning O'zbekistondagi tatbiqi, ta'siri va yuzaga keladigan muammolar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy va texnologik omillarni hisobga olgan holda, muhim tavsiyalar, innovatsion xizmatlarning joriy tizimga integratsiyasi va kelgusida yuzaga kelishi kutilayotgan tendensiyalar muhokama qilinadi. Asosiy e'tiborga sazovor bo'ladigan jihatlar – tijorat banklari raqobatbardoshligini saqlab qolish, mijozlarga yuqori sifatli va qulay xizmatlar taqdim etish va raqamli texnologiyalar yordamida innovatsion yechimlarni joriy etish bo'ladi. Shu bilan birga, iqtisodiy sharoit, texnologik ixtirolar va global tendensiyalar bank tizimining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda.

Fintech va raqamli innovatsiyalar orqali yaratilayotgan imkoniyatlar, banklarning xizmat ko'rsatish usullarini qayta ko'rib chiqishga, yangi maxsulot va xizmatlar ishlab chiqishga undaydi. Tijorat banklarida faoliyat yurituvchi zamonaviy xizmatlar to'plami keng va turli xildagi mijoz ehtiyojlariga javob berishga yo'naltirilgan. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida onlayn bank xizmatlari va muqobil ilovalar keng doirada qo'llanilmoqda. Bu xizmatlarning

asosiy afzalligi-mijozlarga 24/7 xizmat ko'rsatish imkoniyati, operatsiyalarni tez va xavfsiz amalga oshirish, shuningdek, muloqot va qo'llab quvvatlash xizmatlarining yuqori darajasi hisoblanadi. Fintech texnologiyalarining joriy etilishi bilan elektron to'lov tizimlari, karta va terminal xizmatlari hamda raqamli valyutalar bozorida innovatsion yechimlar qo'llanilmoqda. Bu tizimlar mijozlarga qulaylik, xavfsizlik va ko'p o'lchovli integratsiyani kafolatlashi bilan ajralib turadi. Zamonaviy banklar mijozlarga shaxsiy va korporativ kreditlash bo'yicha keng imkoniyatlar taqdim etmoqda. Kredit shartnomalari, avtomatlashtirilgan risk tahlil tizimlari va foydalanuvchi tajribasini oshirishga qaratilgan yechimlar orqali banklar mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga intilmoqda. Tijorat banklari mijozlarga shaxsiy va korporativ investitsiyalarni boshqarish, pul mablag'larini optimallashtirish va bozor tendensiyalariga mos strategiyalar ishlab chiqish bo'yicha maslahat xizmati ko'rsatmoqda.

Bu xizmatlar orqali mijozlar o'z aktivlarini diversifikatsiya qilishda yordam bermoqda. Banklar tomonidan qo'llanilayotgan fintech yechimlari orqali mijozlarga sun'iy intellekt, blokcheyn, big data va analitika kabi texnologiyalar asosida yangi xizmatlar yaratilmoqda. Ushbu yechimlar bank xizmatlarini avtomatlashtirish, xavfsizlikni mustahkamlash va mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq o'rganishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, mavjud xizmatlarni yangi integratsiya va innovatsion texnologiyalar yordamida takomillashtirish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Mijozlar ehtiyojlarining murakkablashib borishi, raqamli tanlovning kengayishi va global tendensiyalar bank tizimining avvalgi an'anaviy xizmat modellari ustidan yangi raqobatchilar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

ADABIYOTLAR SHARXI.

Maqolada taniqli iqtisodchi olim va mutaxassislarining nazariy, amaliy xamda metodologik muammolarga bag'ishlangan ilmiy ishlari o'rganilgan. Tijorat banklarida zamonaviy bank xizmatlarining joriy qilinishi ularni amaliyotga tadbiq qilish va rivojlantirishning bir qator nazariy-uslubiy jixatlari bir qator xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Ushbu sohada amalga oshirilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va kitoblar bank xizmatlarini takomillashtirishning yangi imkoniyatlari, xavfsizlik masalalari, raqamli transformatsiya va fintech texnologiyalarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Varun Mittal (2019) South Koreyaning fintech ekotizimi, asosiy fintech kompaniyalari va hukumat tashabbuslarini batafsil tahlil qiladi. U Koreya fintech sanoatining rivojlanishi, asosiy o'yinchilar va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash tashabbuslarini o'rganadi.

Janubiy Koreyada mobil to'lovlar keng tarqalgan. Masalan, Naver Pay va KakaoPay mobil to'lovlar bozorining 90% dan ortig'ini egallaydi. Upbit, Dunamu kompaniyasiga tegishli, Koreyaning eng yirik kriptovalyuta birjasi bo'lib, mamlakatdagi kripto savdoning 80% dan ortig'ini tashkil qiladi. Carrot kompaniyasi Hyundai Motor Group, SK Telecom va Hanwha kabi yirik kompaniyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va 2 milliondan ortiq avtomobil sug'urta polislarini chiqarishga

muvaffaq bo'lgan.

KakaoBank, 2017-yilda ishga tushirilgan onlayn bank, 23 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega va KakaoTalk ilovasi bilan integratsiyalashgan. Toss (Viva Republica) ilovasi P2P pul o'tkazmalari, to'lovlar, investitsiyalar va sug'urta xizmatlarini taqdim etadi. Ilovaning 28 milliondan ortiq foydalanuvchisi mavjud.

Youngwon Nam, Sunwoo Tessa Lee (2022) tadqiqotida Janubiy Koreyada raqamli moliyaviy xizmatlar kengayishi turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida tafovutlarni qanday yaratayotganini o'rganadi. 2019-yilgi Korea Digital Divide Survey ma'lumotlariga asosan, OLS regressiya tahlili va Concentration Index (CI) hisobotlari o'tkazilgan.

CI raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishdagi daromadga bog'liq farqlarni o'lchash uchun ishlatilgan. Raqamli tengsizlik fuqarolarda raqamli moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanish uchun zarur bilim va ko'nikmalar mavjud bo'lsa kamaytirilishi mumkin. Ayniqsa, qishloq va rivojlanmagan hududlarda internetga kirishni oshirish orqali raqamli moliyaviy xizmatlarga kirishni yaxshilash zarur. Ayman Abdalmajeed Alsmadi (2023) maqolasi bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi jarayoni va bu jarayonda moliyaviy texnologiyalar (FinTech)ning rolini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bank tizimlarida FinTech vositalari innovatsion yechimlar yaratmoqda va bank xizmatlarining sifatini hamda samaradorligini yaxshilashga yordam bermoqda.

Paramesha, Rane va Jayesh (2024) moliya va bank sohalarida chuqur o'rganish (deep learning) va blokcheyn texnologiyalari qo'llanilishini keng qamrovli tarzda tahlil qiladi. Ular ushbu texnologiyalarning innovatsiya yaratish va operatsion samaradorlikni oshirishdagi muhim ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, ular kvant hisoblash kabi yangi texnologiyalarning murakkab moliyaviy hisob-kitob muammolarini, jumladan portfelni optimizatsiya qilish, xavfni boshqarish va kriptografiyani hal qilishdagi potentsialini o'rganadi.

METODOLOGIYA.

Ushbu tadqiqotda blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarining bank amaliyotiga ta'siri ikkilamchi manbalar — ilmiy maqolalar, tahliliy hisobotlar va amaliy tajribalar asosida o'rganildi. Ma'lumotlar kontent tahlili va taqqoslash usullari orqali tahlil qilinib, mavjud yondashuvlar, ularning afzalliklari va cheklovlari aniqlab chiqildi.

TAXLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar yordamida taqdim etiladigan raqamli xizmatlarni faollashtirishda tijorat banklarining tegishli bo'limlarida quyidagi raqamlashtirishga yo'naltirilgan boshqaruv modeli taklif etiladi (3-rasm).


3-rasmda tasvirlangan tijorat banklarida raqamlashtirishga yo'naltirilgan boshqaruv quyidagicha tavsiflanadi:

raqamli strategiya: bunda bankning maqsadlari, vazifalari va raqamli transformatsiya bilan bog'liq asosiy tashabbuslarini tavsiflovchi keng qamrovli

raqamli strategiyani ishlab chiqish nazarda tutilmoqda;

raqamli infratuzilma: bunda bankning raqamli transformatsiya tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish nazarda tutilmoqda;

raqamli kanallar: bunda mijozlarni jalb qilish va tajribani yaxshilash uchun mobil banking, onlayn banking va ijtimoiy media kabi raqamli kanallarni qamrab olish nazarda tutilmoqda;



3-rasm. Tijorat banklarida raqamlashtirishga yo'naltirilgan boshqaruv modeli.

kengaytirilgan analitika: bunda mijozlarning xatti-harakatlari, risklarni boshqarish va operatsion samaradorlik haqida tushunchaga ega bo'lish uchun ma'lumotlarni qidirish, bashoratli tahlil va mashinali o'rganish kabi ilg'or tahlil vositalari va usullaridan foydalanish nazarda tutilmoqda;


raqamli iste'dod: bunda bankning raqamli transformatsiya tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur raqamli iste'dodlarni rivojlantirishga sarmoya kiritish nazarda tutilmoqda;

agile boshqaruv: bunda tezroq qaror qabul qilish va yanada moslashuvchan tashkiliy tuzilmalarni yaratish uchun tezkor boshqaruv amaliyotlarini qabul qilish nazarda tutilmoqda.

Innovatsion xizmatlar va mahsulotlar yaratishda zamonaviy iqtisodiy sharoit va raqamli texnologiyalar bank xizmatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda. Banklar innovatsion mahsulotlar, masalan, onlayn investitsion platformalar, mashinasozlik va blockchain asosida yaratilgan to'lov tizimlari, shaxsiylashtirilgan moliyaviy maslahat xizmatlari orqali mijozlar ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dunyo moliya bozorida onlayn bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining keskin kengayishi kuzatilmoqda. 2020–2024 yillar davomida raqamli bank xizmatlariga murojaat qiluvchilar soni izchil o'sib

bordi.(2-rasm)

Raqamlashtirishda eng katta o'sish Osiyo–Tinch okeani hududida kuzatilgan bo'lib, xususan Xitoy va Uzoq Sharq mamlakatlari bu borada yetakchi pozitsiyani egalladi. Ushbu mintaqalarda foydalanuvchilar soni yil sayin sezilarli darajada ortib, global bozor dinamikasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Yevropa va Shimoliy Amerika kabi rivojlangan hududlarda esa raqamli xizmatlar avvaldan keng tarqalgan bo'lgani uchun, foydalanuvchilar sonidagi o'sish nisbatan barqaror kechmoqda. Biroq bu mintaqalarda asosiy e'tibor xizmat sifati, axborot xavfsizligi va foydalanuvchi qulayligini oshirishga qaratilmoqda.



2-rasm. Dunyo bo'ylab onlayn-banking foydalanuvchilar soni 2020-2024 yillar.

Bugungi kunda dunyo miqyosida onlayn bank foydalanuvchilari soni rekord darajaga yetdi. Bu esa moliyaviy xizmatlar modelining tobora raqamli shaklga o'tayotganini ko'rsatadi. Bunday tezkor raqamli transformatsiya banklar oldiga nafaqat yangi imkoniyatlarni, balki xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda kiberxavfsizlik kabi dolzarb vazifalar qo'ymoqda. Tijorat banklari ekologik barqarorlik, ijtomoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv tamoyillariga amal qilish orqali nafaqat antimonopolistik talablarni, balki mijozlarning ishonchini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

MUXOKAMA

Raqamli bank xizmatlari texnologik innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, banklarga raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Mijozlarga tezkor va shaxsiylashtirilgan xizmatlar taqdim etish, shuningdek, biometrik autentifikatsiya va aqlli kontent texnologiyalari orqali xavfsizlikni mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi banklar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi. Fintech va raqamli integratsiyaning rivojlanishi bank sektorining raqamli transformatsiyasiga katta turtki bo'lmoqda. Sun'iy intellekt, blokcheyn va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari yordamida banklar

operatsiyalarni avtomatlashtirish, shaxsiylashtirilgan xizmatlar taqdim etish va operatsion xavfsizlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu jarayonda mijozlar talabiga mos keladigan innovatsion xizmatlar rivojlanishi asosiy omillar qatoriga kiradi. Fintech bilan integratsiyalashgan tizimlar orqali banklar mijozlararo interaktiv muloqotni kuchaytirish, operatsion jarayonlar samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish maqsadida yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishi zarur. Shu bilan birga, raqamli platformalar yordamida moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va yangi mijoz segmentlarini jalb qilish istiqbollari aniqlanadi.

XULOSA.

Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda turli yondashuvlar qo'llanilishi mumkin. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tahlil qilishda an'anaviy moliyaviy usullar, sifatga asoslangan baholash metodlari, ehtimollik yondashuvlari, investitsiya va xarajat yo'nalishidagi modellar, tashqi omillarni hisobga oluvchi uslublar, miqdoriy tahlil modellar hamda ekspert baholash asosidagi metodologiyalar qo'llanilishi mumkin. Har bir yondashuvning o'ziga xos ustun va cheklovli jihatlari mavjud bo'lib, ular raqamli loyihalarning samaradorligini aniq baholashda muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun maxsus baholash yondashuvlari ishlab chiqildi. Jumladan, tijorat banklari tomonidan taklif qilinayotgan raqamli xizmatlardan foydalanish darajasini aniqlovchi uslubiyotlar, ularning samaradorligini o'lchovchi ko'rsatkichlar tizimi taklif etilib, ushbu metodlar amaliyotga joriy etish uchun moslashtirildi. Bu esa, bank sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini tizimli baholash imkonini beradi. Bank sektoridagi global tendensiyalar, raqamli transformatsiya va innovatsion xizmatlar faoliyatini kengaytirish va optimallashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Mavjud xizmatlarni rivojlantirish va shaxsiy mijoz tajribasini yaxshilash orqali tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, kelgusida yuzaga keladigan xavf va imkoniyatlarni ham nazorat qilib borish mumkin.

Tijorat banklaridagi zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish nafaqat texnologik innovatsiyalar, balki iqtisodiy o'zgarishlar, mijozlar ehtiyojlari va global raqobat muhitida raqamli platformalarni kengaytirishga qaratilgan strategik yechimlar orqali amalga oshiriladi. Kelgusida raqamli transformatsiya va texnologik innovatsiyalardan foydalanish, banklarning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu muqta nazardan, banklar byugjet va resurslarni innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xavfsizlik tizimlarini mustahkamlash va mijozlar xizmatlarini shaxsiylashtirishga yo'naltirilgan tahlillar olib borish lozim. Bank sektorining muvafaqqiyati uchun kunlik operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali mijozlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish kelajakda banklar samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli

“2020- 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik xisobotlari.

3. Mamadiyarov, Z., & Akhmedova, D. (2023). The emergence of digital banks and the significance of digitalization of banking activities. *Economics and Innovative Technologies*, 11(2), 1–13.

4. Chauhan, S., Akhtar, A., & Gupta, A. (2022). Customer experience in digital banking: a review and future research directions. *International Journal of Quality and Service Sciences*, 14(2), 311-348.

5. Das, D., Patnaik, B. C. M., & Satpathy, I. (2024). Factors affecting digital banking adoption: A review of literature. *Journal of the Oriental Institute*, 73(2), 592-616.

6. Husnaningtyas, N. (2025). Digital banking and bank performance: A systematic review and bibliometric analysis. *Jurnal Manajemen Perbankan Keuangan Nitro*, 1(4), 1-14.

7. Gargouri, O. (2023). Digital banking services: Customers’ pros and cons. *Business Excellence and Management*, 13(2), 5-13.

8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va istiqbollari. Tahliliy axborot byulleteni, 2023.